



O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARGA SARFLANGAN XARAJATLAR STATISTIKASI

Norqulov Jaloliddin G'ulomjon o'g'li
Guliston Davlat Universiteti talabasi

Xolmirzayeva Maftuna G'ulomjonovna
Guliston Davlat Universiteti talabasi

Turayeva Gulizahro Kaxxarovna
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mintaqalar rivojlanishini statistik baholash uchun innovatsiya va innovatsion jarayonlar hamda innovatsion rivojlanishning mavjud manbalari tahlili asosida uning klassik va noklassik yo'nalishlari, Y.Shumpetr va uning izdoshlari yondashuvi, rus olimlari yo'nalishi, ichki o'sish nazariyasi, innovatsiyaga evolyutsion yondashuv yo'nalishlari tadqiqotimiz davomida aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:** statistik baholash, innovatsion omil, kommunikatsion tizim, robototexnika, biotexnologiya, nototexnologiya, tendensiya, variatsiya.*

Kirish

Olimlar tomonidan, innovatsiya yoki innovatsion mahsulotlarga turli xil ta'riflar berilgan. Bu atamalarga, ayrim lug'atlarda yangi kiritilgan qoida, yangilik, deb ta'rif berilsa, ayrimlarida uzundan-uzoq ta'rif keltiriladi. Ularning mazmunan bir-biriga o'xshashlarini birlashtirsak, quyidagi ma'no kelib chiqadi: innovatsiya – yangi mahsulot, xizmat va texnologiya yoki yangi tashkiliy-iqtisodiy shakl timsoli, loyihalashtirishda, ishlab chiqarishda, sotishda, iste'molda va utilizatsiya qilishda aniq sifatiy ustunlikka ega bo'lgan, oldingi mahsulot yoki tashkiliy-iqtisodiy shakllarga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy mafaatni ta'minlaydigan innovatsion faoliyat natijasidir. Fikrimizcha, innovatsiyaga eng yaxshi ta'rifni O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev berdilar. U kishining fikricha, «innovatsiya–bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak»

Natija va tahlillar

Mintaqaning innovatsion rivojlanishi uchun innovatsion jarayonni bosib o'tishini talab qiladi. Innovatsion jarayon bir nechta segmentlarni o'ziga birlashtiruvchi murakkab birikma bo'lib, quyidagi lokal jarayonlarni o'z ichiga oladi: –ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini investitsiyalash; intellektual mahsulotni yaratish operatsiyalari yig'indisi; innovatsion marketing va iqtisodiy samaradorlikni statistik baholash kabidir. Ushbu atamani birinchi bo'lib, ilmiy muomalaga Y.Shumpetr kiritgan (1912 y.). Uning fikricha, innovatsion rivojlanish tahlilida asosiy e'tiborni yangiliklarni tatbiq qilishga sabab bo'luvchi o'zaro harakatlanuvchi omillarga qaratish zarur.

O'zbekiston xalqi ham globalinformatsion va kommunikatsion tizim, robototexnika, biotexnologiya, nonotexnologiya, yuqori zakovatga asoslanib yashaydi. Bularning barchasi fan talabchanligi oshirilishini talab etadi. Demak, nafaqat mamlakat rivojlanishi fanning rivojlanishiga ta'sir etadi, aynan fanning rivojlanishini tezlashtiradi ham. Yuqoridagi nazariy ta'rif va e'tiroflarni amaliyotda bo'layotgan holatini baholaymiz. Bunda, mamlakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyatini mintaqalarga (Shimoliy (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati), G'arbiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari), Janubiy (Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari), Markaziy (Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri), Sharqiy (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari)) bo'lib statistik baholashni amalga oshirdik.

1-jadval

Respublikada innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar hajmida mintaqalar ulushi, %

Respublika va mintaqalar	Yillar					2016 yildan 2020 yilni farqi(+;-)
	2016	2017	2018	2019	2020	
O'zbekiston	100	100	100	100	100	
Shimoliy mintaq	5,3	1,8	3,2	2,4	2,6	-2,7
G'arbiy mintaq	6,4	13,2	9,7	12,4	12,2	5,8
Janubiy mintaq	0,7	0,9	1,2	0,6	0,4	-0,3
Markaziy mintaq	73,2	78,6	77,5	81,5	81,6	8,4
Sharqiy mintaq	14,4	5,5	8,4	3,1	3,2	-11,2

Respublika va uning mintaqalarini innovatsiyaga sarflangan xarajatlaririvojlangan davlatlardagidan ancha past bo'lishiga qaramasdan, ijobiy tendensiyalarga ega.

Innovatsiya tarkibi va mintaqalarning ulushi bo'yicha ijobiy tendensiyalar aniqlanmadi. 1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, Markaziy mintaq eng yuqori darajaga erishgan, ya'ni uning ulushi keyingi yillarda 70 %dan, ayniqsa, oxirgi ikki yilda 80 %dan oshgan. Eng yomon darajaga erishgan mintaq –Janubiy mintaq. Oxirgi yillarda uning ulushi bir foizni ham emas, o'rtacha 0,8%ni tashkil qilgan. Sharqiy mintaqada pasayish tendensiyasi mavjud, Shimoliy mintaqada bir tekislik mavjud emas oxirgi besh yilda respublikadagi ulushi 2,7 foiz bandga pasaygan. G'arbiy mintaqada



esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha nobarqaror o'sishga ega, ya'ni oxirgi besh yilda respublikadagi ulushi 5,8 foiz bandga oshgan.

Xulosa

Shunday qilib, umumiy holda innovatsiya, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, ilmga asoslanish, kitob o'qish va yaratish. Innovatsion jarayon esa, ilmga asoslanib, yangi texnologiya va ishlab chiqarish usulining paydo bo'lishi, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, yaratilgan yoki taklif etilgan yangi texnologiya, texnika va ishlab chiqarish usullarini amaliyotga qo'llagan holda jahonda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar taklif etish hamda provard-natijada aholi turmush darajasini va hayot sifatini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.–56 b.
2. Shodiyev X.A., Habibullayev I. Statistika.// Darslik –T.: Iqtisod-Moliya, 2018.–253-268
3. Gulizahro T. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA “1C: BUXGALTERIYA HISOBI” //” Conference on Universal Science Research 2023”. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 96-98.
4. Turayeva G. et al. SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR TASNIFI, TURLARI HAMDA HISOBGA OLISH VAZIFALARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 46-48.
5. Turayeva G. The significance of sustainability of grain production in the consumer basket //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – C. 01019.
6. Turdievna, K. Z., & Tursunalievna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(5), 63-67.
7. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
8. Gulizahro T. et al. AGROSANOAT MAJMUASINING RAQAMLI PLATFORMALARINI RIVOJLANTIRISH //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 49-54.